

Eshonqulov Umurzoq Absamat o'g'li
Jizzax davlat pedagogika universiteti
umumiy tarix kafedrası o'qituvchisi
ORCID: 0009-0005-1626-2616
umurzoqeshonqulov09@gmail.com

JIZZAX VOHASIDA QIRG'IZ ETNOSINING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLI TO'G'RSIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jizzax vohasida keng tarqalgan etnik guruhlardan biri bo'lgan qirg'iz etnosining hududiy tarqalishi, sonidagi o'zgarish tendensiyalari va joylashish xususiyatlari statistik hamda tarixiy-etnografik manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda qirg'izlarning urug'-qabila bo'linish tarkibi, ularning O'zbekiston hududida diaspora sifatida shakllanish jarayonlari, shuningdek Jizzax vohasidagi qirg'iz aholisining demografik dinamikasi ilmiy tahlil qilingan. Muallif tomonidan rasmiy statistik ma'lumotlar, dala tadqiqoti materiallari va oldingi tadqiqotchilarning ilmiy xulosalari qiyosiy tahlil etilib, voha hududidagi qirg'iz etnosining etnodemografik xususiyatlari yuzasidan ilmiy asoslangan xulosalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: etnos, etnonim, qirg'iz diasporasi, Jizzax vohasi, urug'-qabila tarkibi, boyteyit, bayan, qutoli, sayloq, sariteit, choponteit, oriqtait, ovay, qutali, qipchoq, nayman, teyit, kesak, jookesak, qandi, bo'ston, naygut, avot, teeles.

THE SETTLEMENT PATTERNS AND ETHNODEMOGRAPHIC CHARACTERISTICS OF THE KYRGYZ ETHNIC GROUP IN THE JIZZAKH OASIS

Abstract. This article examines the territorial distribution, numerical dynamics, and settlement patterns of the Kyrgyz ethnic group, one of the widely represented ethnic communities of the Jizzakh oasis, on the basis of statistical and historical-ethnographic sources. The study analyzes the clan-tribal composition of the Kyrgyz population and the historical processes through which it has formed as a diaspora on the territory of Uzbekistan. Drawing on official statistical data, field-research materials, and the findings of prior scholarship, the author presents scientifically grounded conclusions regarding the ethnodemographic characteristics of the Kyrgyz population of the Jizzakh oasis.

Keywords: etnos, ethnonym, Kyrgyz diaspora, Jizzakh oasis, clan-tribal composition, Boyteyit, Bayan, Qutoli, Sayloq, Sariteit, Choponteit, Oriqtait, Ovay, Qutali, Kipchak, Naiman, Taiit, Kesak, Jookesak, Qandi, Bostan, Naygut, Avot, Teeles.

РАССЕЛЕНИЕ КЫРГЫЗСКОГО ЭТНОСА В ДЖИЗАКСКОМ ОАЗИСЕ И ЕГО ЭТНОДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация. В данной статье на основе статистических и историко-этнографических источников анализируются территориальное распространение, численная динамика и особенности расселения кыргызского этноса — одной из широко представленных этнических общностей Джизакского оазиса. В исследовании рассматриваются родоплеменной состав кыргызов и исторические процессы их формирования в качестве диаспоры на территории Узбекистана, а также демографическая динамика кыргызского населения оазиса. На основе сопоставительного анализа официальных статистических данных, полевых материалов и выводов предшествующих исследователей автором представлены научно обоснованные заключения относительно этнодемографических особенностей кыргызского населения Джизакского оазиса.

Ключевые слова: этнос, этноним, кыргызская диаспора, Джизакский оазис, родоплеменной состав, бойтейит, баян, кутули, сайлок, саритеит, чопонтеит, ориктеит, овай, кутали, кипчак, найман, таиит, кесак, жоокесак, канди, бустон, найгут, авот, теелес.

Kirish

Etnos atamasi yunoncha ἔθνος — «xalq» va onim — «nom» soʻzlaridan tarkib topib, «xalq nomi» maʼnosini anglatadi [1, 56-b.]. Etnonimlarni ilmiy oʻrganish nafaqat tilshunoslik, balki tarix fani nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi, zero har bir etnonim oʻzida muayyan xalqning kelib chiqishi, etnik tarixi va madaniy-tarixiy aloqalari haqidagi qimmatli axborotni mujassam etadi. Jizzax vohasida istiqomat qiluvchi etnik guruhlarini ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etish vohaning etnik tarixini tiklash va uni yaxlit tushunish borasida katta ahamiyat kasb etadi, chunki etnik tarkibning shakllanishi, etnik guruhlarining koʻchish yoʻllari hamda mahalliy aholi bilan oʻzaro madaniy-xoʻjalik aloqalari hududning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Etnoslar tarixi voqa iqtisodiyoti va madaniyatining rivojlanishi, demografik jarayonlar, siyosiy voqealar hamda ijtimoiy tuzilmadagi oʻzgarishlar bilan chambarchas bogʻliqdir. Shu bois Jizzax vohasida yashagan va hozirgi kunda ham yashab kelayotgan etnik guruhlarining tarixi, ular oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar, madaniy merosi hamda migratsiya dinamikasini oʻrganish vohaning umumiy tarixiy manzarasini yaxlit tasavvur etishga xizmat qiladi.

Jizzax vohasining oʻziga xos geografik joylashuvi va qulay iqlim sharoiti oʻtroq hamda yarim oʻtroq aholining muqim istiqomat qilishi, xoʻjalik yuritishi uchun zarur tabiiy imkoniyatlarni yaratgan. Hududda dehqonchilik va chorvachilikning doimiy hamda mavsumiy tarzda rivojlanib borishi, shuningdek koʻchmanchi chorvachilik xoʻjaligining oʻtroq dehqonchilik xoʻjaligi bilan mushtarak taraqqiy etish imkoniyati koʻplab etnik guruhlarining bu hududga koʻchib kelib oʻrnashishiga sabab boʻlgan.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi kungacha Jizzax vohasidagi qirgʻiz aholisining hududiy joylashuvi, sonidagi dinamik oʻzgarishlar va urugʻ-qabila tarkibi yaxlit tadqiqot predmeti sifatida alohida chuqur oʻrganilmagan. Mavjud ilmiy adabiyotlarda qirgʻiz etnosi asosan Fargʻona vodiysi misolida tahlil qilingan, Jizzax vohasidagi qirgʻiz diasporasining etnodemografik xususiyatlari esa tadqiqotchilar tomonidan alohida mavzu sifatida oʻrganilmagan. Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning maqsadi-rasmiy statistik maʼlumotlar, dala tadqiqoti materiallari va tarixiy-etnografik manbalar asosida Jizzax vohasidagi qirgʻiz etnosining hududiy tarqalishi, sonidagi oʻzgarish tendensiyalari, urugʻ-qabila tarkibi hamda diaspora sifatida shakllanish jarayonlarini ilmiy tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: qirgʻiz aholisining Oʻzbekiston va Jizzax viloyati kesimidagi statistik koʻrsatkichlarini tahlil qilish; voqa tumanlari boʻyicha aholining hududiy joylashuvini aniqlash; qirgʻizlarning urugʻ-qabila tarkibini dala tadqiqoti materiallari asosida tavsiflash; demografik dinamikani statistik tahlil etish.

Materiallar va metodlar

Tadqiqotning manbaviy negizini uch guruh materiallar tashkil etadi. Birinchi guruhga Oʻzbekiston Respublikasi Statistika qoʻmitasi Jizzax viloyat boshqarmasining 2025-yil iyul holatidagi rasmiy maʼlumotlari hamda Oʻzbekiston mahallalari uyushmasining Jizzax viloyati boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan tuman kesimidagi statistik koʻrsatkichlar kiradi. Ikkinchi guruhni muallif tomonidan 2025-yilda Jizzax viloyati Doʻstlik tumani Manas mahalla fuqarolar yigʻinida oʻtkazilgan dala tadqiqoti materiallari, jumladan mahalliy oqsoqollar va mahalla faollari bilan olib borilgan intervyu maʼlumotlari tashkil etadi. Uchinchi guruhga esa U. Abdullayev, O. Abduraupov, A.D. Bobobekov, A. Toshkenboev va Oʻ. Nosirovlarning ilmiy tadqiqotlari, shuningdek S. Qorayevning etnonimika sohasidagi asari kabi tarixiy-etnografik adabiyotlar kiradi.

Tadqiqot metodologiyasi tarix fanida qabul qilingan ilmiylik va tarixiylik tamoyillariga asoslanadi. Statistik maʼlumotlarni tahlil qilishda qiyosiy-statistik metod qoʻllanildi, bu esa 1975–2025-yillar oraligʻidagi demografik dinamikani davrlar kesimida kuzatish imkonini berdi.

- 26 Hududiy joylashuv xususiyatlarini aniqlashda tarixiy-geografik metoddan, urug'-qabila tarkibini tavsiflashda esa etnografik dala tadqiqoti metodidan (kuzatish, intervyu, mahalliy ma'lumotlarni yozib olish) foydalanildi. Turli manbalardan olingan ma'lumotlar manba tanqidi tamoyili asosida bir-biri bilan qiyoslandi va o'zaro tekshirildi.

Natijalar

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil 1-yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasida qirg'iz millatiga mansub aholining umumiy soni 306 983 kishini tashkil etgan. Hududlar kesimida eng ko'p qirg'iz aholisi Andijon viloyatida qayd etilgan bo'lib, ularning soni 112 557 kishiga teng. Keyingi o'rinlarda Farg'ona viloyati 79 421 kishi hamda Jizzax viloyati 46 980 kishi turadi. Shuningdek, qirg'izlarning nisbatan salmoqli qismi Namangan viloyatida 23 427 kishi, Sirdaryo viloyatida 19 436 kishi va Toshkent viloyatida 18 448 kishi istiqomat qiladi. Boshqa hududlarda qirg'iz aholisi ancha kam bo'lib, Toshkent shahrida 3 710 kishi, Qoraqalpog'iston Respublikasida 1 447 kishi, Navoiy viloyatida 624 kishi, Samarqand viloyatida 338 kishi, Qashqadaryo viloyatida 234 kishi, Surxondaryo viloyatida 162 kishi, Buxoro viloyatida 113 kishi hamda Xorazm viloyatida 86 kishi istiqomat qilmoqda [2].

Jizzax viloyati ko'p millatli hudud bo'lib, bugungi kunda voha aholisining milliy tarkibi quyidagicha ko'rinishga ega: o'zbeklar — 1 384 986 nafar, qoraqalpoqlar — 127 nafar, ruslar — 3 242 nafar, qirg'izlar — 45 466 nafar, tojiklar — 31 854 nafar, qozoqlar — 118 nafar, turkmanlar — 145 nafar, tatarlar — 1 784 nafar, uyg'urlar — 193 nafar, turklar — 82 nafar, eronliklar — 2 362 nafar, lo'lilar — 3 230 nafar, yahudiylar — 34 nafar, boshqa millatlar vakillari — 1 664 nafarni tashkil etadi [3]. Keltirilgan statistik ma'lumotlar voha aholisining milliy tarkibida o'zbeklardan keyingi o'rinni qirg'izlar egallashidan dalolat beradi.

Qirg'izlar asosan Turkiston tog' tizmasining janubiy etaklarida joylashgan Baxmal va Zomin tumanlarida keng tarqalgan. Jizzax viloyati tumanlari kesimida qirg'iz aholisining joylashuvi quyidagi ko'rinishga ega: Arnasoy tumanida — 4 574 nafar, Baxmal tumanida — 12 865 nafar, Do'stlik tumanida — 7 466 nafar, Sharof Rashidov tumanida — 191 nafar, Zarbdor tumanida — 5 917 nafar, Zafarobod tumanida — 30 nafar, Zomin tumanida — 8 350 nafar, Mirzacho'l tumanida — 1 643 nafar, Paxtakor tumanida — 3 854 nafar, Yangiobod tumanida — 6 nafar, Forish tumanida — 9 nafar hamda Jizzax shahrida — 561 nafar qirg'iz millatiga mansub aholi istiqomat qiladi [4, 4-b.]. Mavjud statistik ma'lumotlarda G'allaorol tumanida qirg'iz millatiga mansub aholi qayd etilmagan.



1-rasm. Jizzax viloyati hududida qirg'iz aholisining tuman kesimidagi joylashuvi .


Qirg'izlar zich yashaydigan hududlar sirasiga Baxmal tumanining tog'li Obay, Shaybek, Sutlibuloq, Duvlot, Chayish, Surunchak, Qorasuv, Jilbuloq, So'pi, Jadik, qirg'iz Tangtopti hamda Muzbuloq qishloqlari kiradi, bu yerda jami 12 865 nafar qirg'iz aholisi istiqomat qiladi. Zomin tumanining Qoramozor, Duoba, Qorang'isoy va Karimsoy qishloqlarida esa 8 350 nafar qirg'iz aholisi yashaydi. Do'stlik tumanida qirg'iz millatiga mansub aholi deyarli barcha mahallalarda

uchraydi, biroq ularning eng yirik qismi Manas mahalla fuqarolar yig'ida to'plangan: tumandagi jami 7 466 nafar qirg'iz aholisining 6 363 nafari aynan shu mahallada istiqomat qiladi [4, 4-b.].

Dala tadqiqoti materiallari qirg'izlarning urug'-qabila tarkibi va ularning hududiy joylashuvi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berdi. Xususan, «Boyteyit» urug'iga mansub «Bayan» to'pi Baxmal tumanining Obay, Sutlibuloq, Duvlat, Chayish va Surunchak qishloqlarida, «Qutoli» to'pi Qorasuv, Jilbuloq va So'pi qishloqlarida, «Kutike» to'pi Jadik hamda qirg'iz Tangatopti qishlog'ida, «Qashqa» to'pi Zomin va Mirzacho'l tumanlarida, «Oriq» to'pi esa Jadik qishlog'ida joylashgan. Shuningdek, «Choponteyit» urug'iga mansub «Jimur» to'pi Muzbuloq va Jadik qishloqlarida, «Chunay» to'pi Muzbuloq va Oqmo'lada, «Qozoqboy» to'pi Muzbuloq hamda cho'l tumanlarida istiqomat qiladi. «Soritayit» (teyitlarning katta farzandi) urug'iga mansub, Qurmonbekning olti farzandidan tarqalgan «Eshmergan» va «Qutmergan» to'plari Shaybek qishlog'ida joylashgan. «Nayman teyit» urug'iga mansub «Boyrayim» to'pi Nayman qishlog'ida, «Ko'kilboy» to'pi esa Ko'kilboy qishlog'ida yashaydi. «Kesakteyit» urug'iga mansub «Berdiboy» va «Umrzoq» to'plari Obay qishlog'ida joylashgan [7, 55–56-b.].

Do'stlik tumani Manas mahalla fuqarolar yig'ini raisi, qirg'iz millatiga mansub 69 yoshli Kenjayev Jalil boboning ma'lumotlariga ko'ra, Jizzax viloyatining Baxmal va Zomin tumanlarida qirg'izlarning «Taid» urug'i vakillari istiqomat qiladi. Mazkur urug' an'anaviy ravishda to'qqiz otaga bo'linadi. Hozirgi kunda Baxmal va Zomin tumanlari hududida «Taid» urug'ining ayrim shoxobchalari, xususan Boy taid, Sari taid, Chopon taid, Nayman taid hamda Uyg'ur taid guruhlarini istiqomat qilmoqda [8].

1975–1990-yillar oralig'ida Jizzax vohasida qirg'iz aholisi sonining izchil o'sishi kuzatiladi. Jumladan, 1975-yilda ularning soni 11,9 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, 1980-yilga kelib 15,3 ming nafarga, 1985-yilda 18,6 ming nafarga yetgan. 1990-yilga kelib esa Jizzax vohasida istiqomat qiluvchi qirg'izlar soni 20,2 ming nafarni tashkil etgan [9, 12-b.].



2-rasm. 1975–1990-yillarda Jizzax vohasida qirg'iz aholisi sonining dinamikasi (ming nafar).

Mustaqillik yillarida Jizzax vohasida istiqomat qiluvchi qirg'iz aholisi sonida barqaror demografik o'sish kuzatilmoqda. 1990-yilda ularning soni 20 855 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 46 980 nafarga yetgan. Mazkur davr mobaynida qirg'iz aholisi soni 26 125 nafarga oshib, umumiy hisobda 125 foizdan ortiq, ya'ni 2,25 baravar ko'paygan [10].

Muhokama

Olingan natijalar qirg'iz etnosining Markaziy Osiyoda tarqalishi bo'yicha mavjud ilmiy qarashlar bilan uyg'un holda tahlil etildi. Taniqli tarixchi olim U. Abdullayev ta'kidlashicha, XVII–XVIII asrlarda qalmiqlar bosimi natijasida Tyanshan tog'ining shimolida istiqomat qiluvchi qirg'izlarning yirik guruhlarini ikki bor Farg'ona yerlariga kelib o'rnatishgan, bu jarayon XX asr boshlarigacha davom etgan bo'lib, mazkur davr mobaynida Yettisuv, Avliyo Ota, Talas, Qashg'ar, Oloy va Qorateginlik ko'plab qirg'iz urug'lari Farg'ona vodiysiga kelib o'rnatishgan [5, 43-b.]. O.

- 28 Abduraupovning tadqiqotlariga ko'ra esa, qirg'izlarning O'zbekistonning sharqiy hududlarini, xususan Farg'ona vodiysini, chorva yaylovlari sifatida o'zlashtirish jarayoni XVI asrdan boshlangan [6, 193-b.]. Ushbu ma'lumotlar Jizzax vohasidagi qirg'iz diasporasining shakllanishini ham kengroq mintaqaviy migratsiya jarayonlari kontekstida izohlash imkonini beradi voha hududidagi qirg'izlar, ehtimol, aynan shu Farg'ona vodiysiga yo'nalgan ko'chish to'liqlarining hududiy tarmoqlanishi natijasida shakllangan bo'lishi mumkin, biroq bu farazni tasdiqlash uchun qo'shimcha arxiv tadqiqotlari talab etiladi.

Tadqiqot natijalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, XX asrning 70-yillarida Mirzacho'l hududini o'zlashtirish jarayonlari vohada qirg'iz aholisining hududiy joylashuvi va etnodemografik tarkibi shakllanishida muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilgan aholining bir qismi yangi tashkil etilgan tumanlar va aholi punktlariga ko'chib o'tgan. Bu holat 1975–1990-yillardagi izchil o'sish sur'ati bilan bevosita bog'liq holda talqin etilishi mumkin.

Diqqatga sazovor jihati shundaki, Sovet Ittifoqi parchalangandan so'ng qirg'iz etnosi qozoqlardan farqli o'laroq Qirg'iziston hududiga ommaviy migratsiya qilmagan. Do'stlik tumani Manas mahalla fuqarolar yig'ini raisi Kenjayev Jalilning ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston hududidan taxminan 1 200 ta oila Qirg'izistonga ko'chib o'tgan bo'lib, ularning aksariyati Chuy viloyatining Moskva tumaniga qarashli hududlarga, xususan Belovodsk, Ak-Suu, Kizil-Mola, Petrovka, Vasilovka qishloqlari va Bishkek shahri atroflariga joylashgan [8]. Mazkur ma'lumot vohadagi qirg'iz aholisining umumiy soniga nisbatan nisbatan cheklangan ko'lamdagi hodisa bo'lib, bu esa aholining asosiy qismi tabiiy ko'payish hisobiga o'sib borayotganligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, statistik manbalarda 2024-yil (46 980 nafar) va 2025-yil boshi (45 466 nafar) uchun keltirilgan ko'rsatkichlar orasidagi farq turli hisobot davrlari va manba metodologiyasidagi tafovutlar bilan izohlanishi mumkin bo'lib, bu holat kelgusi tadqiqotlarda alohida aniqlashtirishni talab etadi.

Xulosa

O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, Jizzax vohasidagi qirg'izlarning ichki va tashqi migratsiya darajasi past bo'lib qolmoqda, shu sababli aholining etnodemografik o'sishi, asosan, vohada istiqomat qiluvchi aholining tabiiy ko'payishi hisobiga amalga oshmoqda. Ikkinchidan, vohada qirg'izlar soni 1975-yilda 11,9 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 45 466 kishiga yetgan, ya'ni 1975–2025-yillar mobaynida aholi soni taxminan 3,8 barobar oshgan, bu esa ushbu etnik guruhning voha aholisi tarkibidagi demografik salmog'i yildan-yilga ortib borayotganini ko'rsatadi. Uchinchidan, dala tadqiqoti materiallari qirg'izlarning boy urug'-qabila tuzilishi (Boyteyit, Choponteyit, Soriteyit, Nayman teyit, Kesakteyit, Taid va boshqa urug'lar) hozirgi kunga qadar saqlanib qolganini va bu tuzilma hududiy joylashuv bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. To'rtinchidan, vohadagi qirg'iz diasporasining shakllanishi kengroq mintaqaviy — Farg'ona vodiysiga yo'nalgan — migratsiya jarayonlari kontekstida ko'rib chiqilishi lozim, biroq bu masala alohida arxiv tadqiqotlarini talab etadi. Umuman olganda, Jizzax vohasidagi qirg'iz etnosining hududiy joylashuvi, urug'-qabila tarkibi va demografik dinamikasini kompleks tarzda o'rganish voha etnik tarixining muhim tarkibiy qismi sifatida yanada chuqur tadqiqotlarni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qorayev S. Etnonimika. — T., 1979.
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi Jizzax viloyat boshqarmasi ma'lumotlari, 2025-yil iyul.
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi Jizzax viloyat boshqarmasi ma'lumotlari, 2025-yil iyul..
4. O'zbekiston mahallalari uyushmasining Jizzax viloyati boshqarmasi ma'lumotlari, 2025-yil avgust.
5. Abdullayev U. Farg'ona vodiysida etnoslararo jarayonlar (XIX — XX asr boshlari): tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. — B. 43.

6. Abduraupov O. Qirg'iz etnosining O'zbekiston hududidagi tarqalish va joylashish jihatlarini // Jamiyat va innovatsiyalar. — B. 192.
7. Bobobekov A.D. Zarafshon-Zomin mintaqasi aholisining XX asr boshlaridagi etnik tarkibini o'rganishda statistik va arxiv ma'lumotlarining ahamiyati // Markaziy Osiyo madaniyati tarixi va tarixshunosligi masalalari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — T., 2019. — B. 50–51.
8. Dala yozuvlari. Jizzax viloyati Do'stlik tumani Manas MFY, 2025-yil.
9. Toshkenboev A., Nosirov O '. Jizzax viloyati. — Toshkent: O'zbekiston, 1996. — B. 12.
10. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi Jizzax viloyat boshqarmasi ma'lumotlari, 2025-yil iyul.